



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

## Bahor keldi seni so‘roqlab...

*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,  
O‘rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg‘ongan kurtak hayot bergen kabibi  
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.*

*Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,  
Ul ham yoshi to‘kdi-yu, chekindi nari.*

*Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,  
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.  
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,  
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.*

**Zulfiya,**  
*O‘zbekiston xalq shoirasi*





**Saf o MATCHONOV,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
 O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasasi professori,  
 pedagogika fanlari doktori  
 E-mail: safomatchonov1949@gmail.com*

## **MATN TAHLILI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Annotatsiya:** adabiy ta'lim faqat fan qonunlarigina emas, balki san'at qonunlari asosida ish ko'rishi tufayli kitobxonlik inson bilimi bilan birga ruhiyatiga, dunyoni ochiq ko'z bilan ko'rishi, yurak-yurakdan tushunishi va teran his qilishiga, fe'l-atvorining har jihatdan yaxshilanishiga, shu tariqa ma'naviy kamoloti rivojiga cheksiz ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada ta'lim oluvchilarning kitobxonlik madaniyati bilan bog'liq ma'naviyat tarbiyasida kitob ustida ishslash bilan bog'liq bir qator usullar va ularning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *mutolaa madaniyati, kitobxonlik, matn, mundarija, so'z boshi, so'nggi so'z, titul varagi, kolontitul, epigraf, konspekt olish, reja tuzish, sarlavha, kitob tanlash.*

**Аннотация:** поскольку литературное образование действует не только по законам науки, но и по законам искусства, чтение, наряду со знаниями, оказывает бесконечное воздействие на психику человека, на то, чтобы он видел мир открытыми глазами, понимал и чувствовал глубоко сердцем, на совершенствование его характера во всех аспектах, а значит, и на развитие его духовной зрелости. С этой точки зрения в статье освещается ряд методов работы с книгами и их значение в духовном воспитании учащихся, связанных с культурой чтения.

**Ключевые слова:** *культура чтения, чтение, текст, оглавление, введение, послесловие, титульный лист, нижний колонититул, эпиграф, составление плана, название, выбор книги.*

**Annotation:** since literary education operates not only according to the laws of science but also according to the laws of art, reading, along with knowledge, has an infinite impact on the human psyche, on making him see the world with open eyes, understand and feel deeply with his heart, on improving his character in all aspects, and therefore on developing his spiritual maturity. From this point of view, the article highlights a number of methods of working with books and their importance in the spiritual education of students associated with the culture of reading.

**Key words:** *reading culture, reading, text, table of contents, introduction, afterword, title page, footer, epigraph, drawing up a plan, title, choosing a book.*

Maktabda adabiy ta'limganing vazifasi o'quvchilarning badiiy asar g'oyaviy mazmunini tushunishi va o'zlashtirishiga erishish bilan chegaralanmaydi, balki shu orqali ularni mustaqil fikr lash qobiliyatiga ega, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol kishilar qilib tarbiyalashni ham nazarda tutadi. Chunki madaniyatli bo'lishning faqat bitta eng muhim vositasi bor – o'qish. Uning o'rnini hech narsa bosolmaydi. O'qib-o'rganmasdan turib ma'naviy kamolot haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

Kitobxonlik madaniyati kitob o'qishni o'zlashtirish bilangina belgilanmaydi. U avvalo, mutolaaga ijodiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi va uzoq yillar mobaynida shakllana boradi. Oddiy kitobxon erkin tanlab o'qiydi va u, odatda, asarning biror jihatini (voqealar qurilishi, she'r tuzilishi, qahramonlar xarakteri man-tig'i, mavzu, kompozitsiya, konflikt, sujet, badiiy detal kabi nazariy tushunchalarini) o'rganishni nazarda tutadi. O'quvchi esa shunchaki kitobxon emas. U o'qituvchining topshirig'i, asar mutolaasi jarayonida nimalarga e'tibor berish yuzasidan maslahati, talabiga ko'ra ma'lum bir

maqsad bilan o'qiydi. O'qituvchining topshiriq-tavsiya si o'quvchi uchun asarni tushunishga kalit vazifasini o'taydi. A.Umarovning fikricha, "Kitobxonlik "murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayon bo'lib, uning mohiyatini anglash tizimiyl tahlil va sintezni uyg'un tarzda amalga oshirish hamda mutolaa hodisasining tarkibiy tushunchalarin o'rganishni taqozo etadi"<sup>1</sup>.

Aslida har qanday asar ustida ishslash, uni o'rganish asosida o'sha asarning g'oyaviy mazmuni bilan o'quvchilarning ma'naviy-ruhiy ehtiyoji o'rtasida ichki bog'liqlik, mutanosiblik turadi. O'qituvchi kitob tanlash jarayonida mutolaaning shu jihatiga e'tibor berishi, o'quvchilarni tavsiya qilinayotgan asarni qabul qilishga ruhan tayyorlashi zarur. Kitob ustida ishslash kitob bilan tanishishdan, yana ham to'g'riroq'i, uning nomi to'g'risida mulohaza yuritishdan boshlanadi. O'quvchi u yoki bu kitobni qo'lga olar ekan, dastlab nominining mag'zini chaqishga intiladi. Bu qiziqish uning bilimi, aqli, hayotiy tajribasini muallif tomonidan qo'yilgan muammoni to'g'ri tushunish va baholashga yo'llaydi.

1 Умаров А.О. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараққиёт. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – Тошкент: Фан, 2004. – 15-б.

**Badiiy asarlar nomi** ilmiy asarlar nomidan obrazliligi bilan ajralib turadi va unda ma'lum ma'noda adabiyotning tarixiy taraqqiyoti ham aks etadi. Asar nomi muallif uchun g'oyaviy niyatini ifodalash va targ'ib etishning eng yaxshi vositasidir. O'quvchining kitob bilan tanishuvi uning nomi, muallifi haqidagi ma'lumotlar bilan cheklanmaydi. Kitob apparati, xususan, titul varag'i, annotatsiya, epigraf, so'z boshi, so'ngi so'z, mundarija, kishilar va joy nomlari ko'rsatkichi, izohlarda shunday ma'lumotlar jamlangan.

**Titul varag'i**ida muallifning ismi-sharifi, kitobning nomi, janri, qo'lyozmani nashrga tavsiya etgan tashkilot (ilmiy-metodik nashrlarda), nashr tartibi, kimlarga mo'ljalangani, bosib chiqqargan nashriyot va shahar nomlari qayd qilinadi. Titul varag'ining orqasidagi ma'lumotlar esa asar janriga ko'ra turli tartibda beriladi. Jumladan, badiiy nashrlarda kitob muharriri ko'rsatilib, annotatsiya berilsa, ilmiy-metodik adabiyotlarda, masalan, darslik va qo'llanmalarda maxsus muharrir, ilmiy maslahatchi, taqrizchi nomlari keltirilib, annotatsiya, shuningdek, qaysi bo'lim kimga tegishliliqi (ish mualliflar guruhi tarafidan bajarilgan bo'lsa), ayrim hollarda mundarija va chiqish ma'lumotlari aks etadi.

**Annotatsiyada** kitobdag'i asar yoki asarlarning mavzu doirasi, janri, shakli, kimlarga mo'ljalangani, ba'zan muallif haqidagi ma'lumotlar ixcham tarzda bayon qilinadi.

**Epigraf** esa bir qarashda, asarga aloqasi bo'lmagan mustaqil juz'iy luqma sifatida taassurot qoldirsa-da, asosiy matn bilan g'oyaviy, badiiy-estetik uyg'unlikka ega va ramziylik kasb etadi. Uning mazmunini anglash asar mazmunini tushunishga yo'l ochadi, mantiqiy ta'lakkur yuritishga o'rgatadi. O'quvchilarni epigraf mag'zini chaqishga o'rgatish dasturda belgilangan o'quv tarbiyaviy vazifani bajarishning shartlaridan biridir.

Kitob ustida ishlash jarayonida **mundarija** o'ziga xos ko'rsatkich vazifasini bajaradi. Unda asarda yoritilgan masalalar ixcham shaklda, bo'lim, bob va paragraflar tartibi asosida aks etadi. O'quvchi kitobga qayta murojaat qilgan paytda ham mundarijaga qarab, o'ziga kerakli materiallarni osongina topishi mumkin. Ba'zi asarlar mundarijasi (sarlavhalari) qiziqarliligi bilan diqqatni jalb etadi. Masalan, X.To'xtaboyening "Sariq devni minib" romanining boblari janr tabiatiga ko'ra "Ko'chaga quvildim", "Xudoning yelkasiga igna sanchdim", "Qotillar maslahati" tarzida g'ayritabiyy nomlanishi kitobxonning qiziqlishiga alohida turki bo'ladi.

Kitob bilan ishlashda yordam beradigan unsurlardan biri **kolontituldir**. U, asosan, lug'atlar va qomusiy nashrlarda ham bir varaq matnning tepe qismida ishlatalidi. Chapda izohlanayotgan so'zlarning birinchisi, o'ngda oxirgisi qayd etiladi.

O'quvchilarni deyarli barcha tur va janrdagi asarlar mazmuni, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar mohiyati bilan tanishtirishda **so'z boshilardan** ham keng foydaliladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot va chet el adabiyoti namunalari, shuningdek, tarixiy asarlarda so'z boshiga

alohida ehtiyoj seziladi. Jumladan, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida adib tomonidan mazkur asarlarning yaratilish tarixi, mavzu doirasi to'g'risida yozilgan qisqacha kirish so'zлari ana shunday tanishtiruvchilik xususiyatiga ega.

So'nggi yillarda ayrim yozuvchilarning saylanma kitoblariga so'z boshi yoki **so'nggi so'z** yozish urf bo'ldi. Adabiyotning tajribali bilimdonlari, taniqli shoir va yozuvchilar qalamiga mansub bunday maqlolalarda yozuvchi ijodining o'ziga xos xususiyatlari, adabiyotga qo'shgan hissasi, yashab ijod etgan davri, asarlarining mavzu doirasi, qahramonlari xususida so'z yuritiladi.

Kitoblar yuqorida qayd etilganlardan tashqari, janri va xarakteriga ko'ra, izohlar, shartli qisqartmalar, foy-dalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlar bilan ham ta'minlanadi. Asar g'oyasi bilan chuqurroq tanishishda ulardan har birining o'z o'rni va vazifasi bor. Kitob apparati bilan tanishgan o'quvchida uning ilm-fan, san'at va adabiyotning qaysi sohasiga aloqadorligi, ko'tarilgan mavzular ko'lami, doirasi yuzasidan tasavvur tug'iladi.

O'quvchi asar mutolaasiga kirishar ekan, o'z oldiga quyidagi savollarni qo'yishi va o'qish jarayonida ularga, albatta, javob topishi kerak:

1. Kitobda (har bir paragraf va bo'limlarda) nima haqida so'z yuritiladi?
2. O'zlashtiriladigan bilimlar oldin egallangan bilimlar ni to'ldira oladimi?
3. Ilgari surilgan g'oyalar hayotga mos keladimi, ularni qayerlarda qo'llash mumkin?

Ko'rindaniki, kitob ustida ishslash uning asosiy matni ustida ishslash bilan bog'liq yangi bosqichga ko'tariladi va yangicha mazmun kasb etadi. Bu jarayon o'z ichiga quyidagi ishlarni qamrab oladi:

**Ko'chirma (sitata)lar olish.** Inson xotirasi har qancha taraqqiy etgan bo'imasin, o'qigan kitoblari, gazeta-jurnallardagi o'zi uchun zarur g'oyalar, daliliy misollar, taxminlar, hukm-xulosalar, muhim sanalarni to'la, aniq va o'zgartirmasdan esda saqlash imkoniga ega emas. O'zlashtirilgan materiallar vaqt o'tishi bilan unutila boradi yoki biri ikkinchisi bilan chalkashtiriladi. Shuning uchun mutolaa davomida zarur deb hisoblangan o'rnlardan ko'chirmalar olinadi. Ko'chirmaning har ikki tomonida qo'shtirnoq belgisi qo'yilib, tagiga muallifning ism-sharifi, asar nomi, nashr qilingan joy, nashriyot nomi, nashr yili va kitob sahifasi qayd qilinadi. So'z va gaplar qisqartirilsa, nuqtalar bilan belgilanadi.

Ko'chirmalar badiiy asarlardan ham, ilmiy-metodik asarlardan ham olinadi. U o'quvchiga maqola, referat, insho va ma'ruza matnlarini yozishda:

- a) o'z fikrini asoslash;
- b) tinglovchi (boshqa)larni nufuzli muallif fikri bilan tanishtirish;
- c) o'z fikrini aniqroq ifodalash;
- d) badiiy matn orgali asar tilining o'ziga xosligini ko'rsatishda yordam beradi.

Kitob ustida ishslash jarayonida mavzuga aloqador

o'rnlardan ko'chirmalar olishni topshirish o'quvchini mustaqillikka o'rgatadi. U tahlilda o'zi olgan ko'chirma-larga ishonchli manba sifatida tayanadi.

Ko'chirma ikki xil shaklda ishlatalidi:

1. Mustaqil gap sifatida.
2. Muallif gapi tarkibida.

**Reja tuzish.** Har qanday asar mazmunini o'zlashtirishda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri reja asosida o'rganishdir. Reja asarda ko'tarilgan masalalar, voqealar tartibini qamrab oladi. Shuning uchun reja ustida bosh qotirishdan oldin o'rganilayotgan asar (matn) diqqat bilan o'qiladi, ma'noli qismlarga ajratiladi. Reja quyi sinflardan badiiy asar qahramonlari boshdan kechirgan voqealar izchilligi asosida sodda tarzda, yuqori sinflarda adabiy qahramonlar xarakteri evolutsiyasi bilan bog'lab murakkab shaklda tuziladi. Reja ustida ishlash – asar mazmuni, tili, kompozitsiyasi, qolaversa, qahramonlar xarakterining yaratilishi ustida ishlash bo'lib, 5-sinfda 2–3, 6-sinfda 4–5 betdan iborat asarlar matni bo'yicha reja tuziladi. Reja tarixiy, ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar mutolaasida ham tuziladi va u o'quvchini diqqat bilan o'qishga, muhimni nomuhimdan ajratishga, mustaqil fikrashga, o'qiganini esda squalab qolishga o'rgatadi.

**Konspekt olish.** Konspekt o'z ichiga rejani ham, ko'chirma va tezisni ham qamrab oladi. Tarixiy, ilmiy va metodik adabiyotlarni konspektlashtirishda katta ma'rifiy maqsad ko'zda tutiladi. Konspektda o'rganilayotgan asarning asosiy mazmuni qisqa shaklda ifodalanadi. Uni yozishda:

- a) o'rganilayotgan asardagi asosiy qismlar, bosh g'oya va xulosalar ajratib ko'rsatiladi;
- b) asar mazmuni o'quvchining o'z tili bilan bayon qilinadi;
- d) asosiy qonun-qoidalalarigina yoritilib qolmasdan, ularni dalillovchi konkret misollar, taxmin va farazlar ham keltiriladi.

Konspekt asar mazmunini chuqur o'zlashtirish bilan birga, zarurat tug'ilganda unga qayta murojaat qilish orqali uzoq yillarda saqlashga ham yordam beradi.

2 Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 13-б.

Kitoblar olami shu qadar boy va rang-barangki, duch kelgan asarni o'qish foydasizgina emas, balki zararli hamdir. Chunki har bir asar o'quvchining yosh xususiyati, bilim darajasi va hatto jinsini hisobga olib yaratiladi. Demak, kitobxonlik madaniyatiga erishishda asar tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chinakam kitob muxlisi belgilangan mavzu bo'yicha asar tanlay oladi.

**Kitob tanlash** shu jihat bilan e'tiborliki, asarning mavzu doirasini (hatto darajasini) oldindan bilgan o'quvchi mutolaa jarayonida o'z qiziqlishi va diqqatini ma'lum maqsadga yo'naltiradi. Muayyan maqsad bilan o'qish esa asar mazmunini o'zlashtirishning muhim shartlaridan biridir.

O'quvchilarning madaniyatli kitobxon darajasiga majburlab emas, mutolaa qilingan asarlarni konspektlashtirish, bayon, insho, annotatsiya, taqriz va referatlar yozdirish, zarur deb hisoblangan o'rnlardan ko'chirmalar oldirish kabi mustaqil ijodiy ishlarni amalga oshirish orqali ko'tarish mumkin. Malakali o'quvchilar uchun kitob o'qish majburiyat bo'lmay, ehtiyojga aylanadi. Ular o'qigan asarlari yuzasidan fikr-mulohazalarini ma'lum reja asosida og'zaki (ma'ruza, suhbat, bahs) va yozma (referat, bayon, insho, taqriz, maqola) tarzida bayon qilish bilan o'zları ham madaniy-ma'rifiy jihatdan yuksala boradilar. O'qiganlarini qayd etish, his qilish va tushunishdan tahsiliga, undan estetik qabul qilishga o'tish o'quvchilarning mantiqiy tafakkur qobiliyati taraqqiyotidan darak beradi. Zero, kitob ustida ishlashdan kuzatilgan maqsad ham ma'naviy kamolotga erishishdir. Demak, "Mutolaa ehtiyoji shaxsda ixtiyor, erkin va ongli o'qib-o'rganish, estetik zavqlanish, huzurlanish va ilhomlanishga bo'lgan moyilliklar negizida individual qiyofa kasb etadi"<sup>2</sup>.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'quvchining kitob ustida ishlash madaniyatining ma'naviyati darajasini belgilaydi. Ma'naviyat esa o'z-o'zidan bino bo'lmaydi. U ta'lim-tarbiya uyg'unligidagi tinimsiz izlanishlar, o'qish-o'rganishlar mahsulidir. Kitobxonlik madaniyatiga mashaqqatli, ayni damda zavql mehnat, izchil mutolaa orqali erishiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 153 б.
2. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.
3. Умаров А.О. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараққиёт. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – Тошкент: Фан, 2004. – 194 б.

# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

## Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulkumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Alijon Safarov  
Husniddin Norqulov  
Odiljon Boynazarov  
Madina Nuriddinova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
Yuldashev Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan  
Gulchexra Keldiyorova  
Gulsanam Xolikulova  
Komiljon Qarshiyev  
Svetlana Umirova  
Xolmo'min Fayzullayev  
Nilufar Namazova  
Dilbar Niyazova  
Sayyora Halimova  
Shaxnoza Yunusova  
Nigoraxon Ro'zibayeva  
Tadjixon Sabitova  
Oqila To'raqulova

## Axborot hamkorimiz:



### Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

### Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA  
Shabnam G'ANIYEVA  
Bonu DO'SMATOVA

### Sahifalovchi:

Rustambek YUSUPOV

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (93) 759-43-66, (77) 003-34-33,  
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

## MUNDARIJA

### DOLZARB MAVZU

**Safo Matchonov.** Matn tahlili vositasida o'quvchilarning mutolaa madaniyatini shakllantirish usullari ..... 2

**Nasiba Sabirova.**  
"Tarbiya" fanini o'qitishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari..... 5

**Shohida Shahabitdinova.**  
Zamonaviy neyropsixolingvistika tendensiyalari ..... 8

**Nafisa Abdullayeva.**  
**Muxtabar Maraimova.**  
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarida o'zini-o'zi rivojlantirishining kasbiy faoliyatdag'i ahamiyati..... 11

**Шахноза Батыралиева.**  
Методические аспекты функциональных задач в учебно-воспитательной работе и деятельности тьюторов в высших учебных заведениях Узбекистана ...14

### TILSHONOSLIK

**Jetkerbay Seytjanov.** Mediadiskursda undalmalar voqealanishining ritorik aspektida diskursiv tahlili (qoraqalpoq, ingliz va o'zbek tillari misolida) ..... 16

**Dildor Eshmuratova.**  
**Farangiz Yusupova.**  
Tilshunoslikda leksik birliklar tadqiqining nazariy asoslari ..... 18

**Feruzaxon Karimova.**  
Shaxsga murojaatning aksiolingvistik xususiyati..... 21

**Sevara Usmonova.**

**Feruzaxon Muxammatjonova.**  
O'zbek tarixiy asarlarida antroponom va toponimlarning o'zaro bog'liqligi ..... 23

**Saida Maksumova.**  
Gapda grammatick aloqaga kirishmaydigan bo'laklarning uslubiy xususiyatlari..... 25

**Nargiza Qodirova. Ismoiljon Xojaliyev.**  
Turli tizimli tillarda komponent tahlil.... 28

**Barno Karabayeva.**  
Семантические и прагматические аспекты перцептивных категорий в английском и узбекском языках..... 30

**Матлуба Ахмедова.** Вопросы об основных тенденциях развития переводоведения в узбекистане..... 33

**Sarvinoz Ermatova.**  
The Power of Words: A Linguistic Study of Orders in Institutional Texts ..... 36

### ADABIYOTSHUNOSLIK

**Olim Kayumov.** G'iybat va "mish-mish" folklor janri sifatida ..... 38

**Madinabonus Axmedova.** O'zbek mifologiyasida ajdarho obrazi ..... 41

**Shaxlo Xalilova.**  
**Nilufar Ergasheva.**  
"Jeyn Eyre" va "Anna Karenina" asarlarida ayollarning o'rni..... 44

### ILGOR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

**Sanobar Kuldasheva.**  
Sintaksisni o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni..... 46

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. https://oak.uz/pages/4802*